www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Xalqaro kredit va valyuta munosabatlari

Usmonova Dildora Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik univeraiteti 3-bosqich talabasi

Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari - bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi va eng murakkab jarayonlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab omillar ta'sirida xalqaro valyuta-kredit munosabatlarining murakkablashish jarayoni jadallashdi va shuningdek, ushbu zamonaviy dunyo sharoitida o'zining barqarorsizligi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda davlat, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini pul bozori yoki valyuta bozori, undagi valyuta operatsiyalarining rivojlanishisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli ham xorijiy valyutalar bilan bog'liq bo'lgan jahon tajribasini o'rganish O'zbekiston va dunyoning boshqa davlatlarida shakllanib borayotgan bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Har qanday davlat iqtisodiyotinin istiqboli uchun pul muhim ahamiyatlidir. Pul munosabatlari jamiyatdagi ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol singari jarayonlarini qamrab oladi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, haqiqiy pul tovar ekvivalenti sifatida mavjud bo'lib, iste'molchilarni muomalaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

Valyuta ham pul, ammo hamma vaqt ham pul valyuta bo'lavermaydi. Agarda muayyan bir davlatning milliy pul birligi jahon bozorida davlatlar o'rtasida pul sifatida ishlatilsa, ya'ni pulning funksiyalarini bajarsa, u valyutaga aylanadi. Valyuta jahon bozorida, davlatlar o'rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklaridir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari "dollari", Buyuk Britaniya "funt sterlingi", Kanada "dollari", Fransiya "franki", Yapon "ienasi" va boshqa shu kabilar. Muayyan bir davlatning milliy puli - uning milliy valyutasi bo'ladi. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa - xorijiy valyutalardir. [1]

Valyuta munosabatlari bu, valyutani jahon xo'jaligi muomalasida amal qilish jarayonida va xalqaro aloqalar sohasiga xizmat ko'rsatishda o'ziga hos pul munosabatlarining yig'indisidir,[2] yoki davlatlar, jahon valyuta bozorining sub'ektlari, muayyan davlatning rezident yoki norezident shaxslari o'rtasida valyutalarni sotish, sotib olish, majburiyatlarni bajarish hamda boshqa shu kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlardir.

Valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari ya'ni subyektlari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlar, davlatlar, davlatlarning rezident va norezident shaxslari e'tirof etiladi. Rezident shaxs deganda muayyan davlat hududida yashayotgan va ushbu davlat fuqarosi bo'lgan hamda mazkur davlat hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs tushunilishi mumkin. Norezident shaxs esa bu muayyan davlat hududida yashab faoliyat ko'rsatayotgan, ammo shu davlat fuqarosi bo'lmagan yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Norezident shaxsga misol qilib elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va korxonalarining bo'linmalari hamda shu kabilarni keltirsak bo'ladi.

Hozirgi kunda umumjahon xo'jalik hayotining baynalmilallashuv jarayonida, xalqaro doirada mamlakatlararo kapital importi va eksporti muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va

---

[1] Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari/ darslik. T. Babakulov, U.Abdullayev.- Toshkent: "Sano - standart", 2014, 232 b

[2] Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 1168 с

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

bu munosabatlar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga barqaror ta'sir etmoqda. Ayniqsa, jahonning ko'plab rivojlanish bosqichiga qadam qo'ygan mamlakatlar chet el investitsiyalari va kreditiga muhtojdirlar. Hozirda kapital eksporti bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarning aksariyatini sanoati rivojlangan davlatlar tashkil qilmoqda. Masalan, AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya kapital eksporti bilan shug'ullanuvchi davlatlar hisoblanadi. Shuningdek, shunga o'xshash davlatlardan kredit olib, ularning investitsiyalari hisobiga o'z milliy iqtisodiyotini tiklab olgan va tayyor mahsulotlar eksportini muvaffaqiyat bilan amalga oshirayotgan davlatlarning ko'lami ortib bormoqda. Bunday davlatlar sirasiga Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan hamda Gonkong kabi davlatlar misol bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit aslida feodalizm davrida paydo bo'lgan. Bu davrlarda harbiy yurishlarni hamda monarxlar va zodagonlarning saroylariga tegishli xarajatlarini qoplash uchun boshqa mamlakatlardan qarzga mablag'lar olingan. Dastlab ssuda mablag'ini chetga chiqarish aksariyat xususiy shaklda amalga oshirildi. Keyinchalik esa bunday faoliyat "xalqaro kredit" munosabatlariga tobora ko'proq aralasha boshlagan hukumatlar ya'ni davlatlar tomonidan rag'batlantirila boshlandi.

Xalqaro kreditga oid huquqiy munosabatlar shunday shartnomaviy munosabatki, unda bir taraf chet el elementi, ya'ni chet el mamlakatining banklari, firmalari, kompaniyalari, yuridik va jismoniy shaxslari, Trans Milliy Korporatsiyalari va chet davlatning o'zi boshqa davlatga, uning yuridik va jismoniy shaxslariga foizlar hisobida, shartnomalarda belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan beradigan kreditga oid munosabatlardir.[3]

Xalqaro kredit asosan iqtisodiy qonunlar talabidan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti subyektlarining daromad olishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Tarixan xalqaro kredit aloqalari xalqaro savdoga qo'llanilgan, mantiqan esa sarmoya harakatiga xususiy sarmoyaning rivojlanayotgan mamlakatlar olamiga so'nggi yillarda to'liq asosan iqtisodiyot taraqqiyotida yutuqlarga erishgan mamlakatlarga yetib keldi.

Tashqi investitsiya qarzlarining bir toifasi xalqaro moliya muassasalari u yoki bu mamlakatdagi investitsiya loyihalarini kreditlashi mumkin. O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashni amalga oshirishda ko'maklashuvchi eng nufuzli xalqaro banklar bo'lib, ular qatoriga Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banklarini kiritish mumkin. Shuni ham aytib o'tish joizki, chetdan olingan qarz muayyan tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi, shuning uchun davlat yoki xususiy tarmoq doirasida chet el investitsiyalaridan oqilona foydalanilmaslik mamlakatga juda qimmatga tushishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari/ darslik. T. Babakulov, U.Abdullayev.- Toshkent: "Sano - standart", 2014;
2. Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004;
3. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019;
4. R. R. Tojiev. "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2009.

[3] **Xalqaro xususiy huquq:** Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 343 b.